

**B**  
**K**

Birinchi  
kitobim

БИРИНЧИ КИТОБИМ



MUSLIM  
MUSALLAM  
МУСЛИМ МУСАЛЛАМ

YORUG'  
DARICHA

Ё Р У Г Д А Р И Ч А



MUSLIM  
MUSALLAM

# YORUG' DARICHA

She'rlar

«Navro'z» nashriyoti  
Toshkent – 2019

BBK 83.(3Ÿ36)4  
M-01  
UO'K 812.633

**Muslim Musallam**  
**Yorug' daricha** (she'rlar). – Toshkent: «Navro'z» nashriyoti, 2019-y. 72 bet.

*Mas'ul muharrirlar:*  
**Aziz SAID,**  
**Nodir JONUZOQ**

*Muslimbek yuksak she'r ruhiyati va mezonlari bilan qalam tebratayotgan yosh ijodkorlardan biri. U hayot va taqdir, umr mohiyati yoki shoir qalbi haqida yozadimi, yor firog'i yoki ruh bandiligi haqida yozadimi, o'ziga xos falsafiy xulosalarga sizni ro'baro' qilib qo'yadi. "Muslimbek Musallamning she'rlarida nafaqat bugungi yosh qalamkashlarning qalb tajribalari, shu bilan barobar shu kundagi o'zbekcha she'rning tabiatida yana qayta uyg'onayotgan dard bilan so'zning omuxtaligiga intilish namoyon bo'lmoqda", deb yozgan edi Xurshid Davron.*

*O'zidan inson va shoir sifatida talabi ana shunday katta bo'lgan ijodkor she'rlari o'quvchiga manzur bo'ladi degan umiddamiz.*

Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan nashrga tavsiya etilib, "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-566-73-6

© Muslim Musallam, 2019-y.

© «Navro'z» nashriyoti, 2019-y.

## PARVOZ

Uchish kerak, bu eski mavzu  
Va azaldan qolgan tushuncha.  
Yuragingni o'rtaydi qayg'u  
Qanotlaring to'la chiqquncha.

Havolanib ketmaslik kerak,  
Havolarga sochib g'amingni.  
Unutmasang bo'ldi, azizim,  
Senga qanot bergan zaminni.



## VATAN

Yoshim tomdi chumolining so'qmog'iga,  
 Silab qo'ydim musichaning patlarini.  
 Vatan degan bir tabarruk giyoh undi,  
 Yashillatib dilning qaqroq qatlarini.

Bu Yasavviy, bu Kubroning dodimasmi?..  
 Ketaverdim Xoja Ahror xoki qadar.  
 Qarang, Tangrim vatan so'zin tikib  
 qo'ymish  
 Yuragimning eng omonat choki qadar.

Ne zamonlar, ne urushlar, ne g'avg'olar,  
 Ne nafaslar yutilmasdan tashda qoldi.  
 Beshigida go'daklari ingrab-ingrab,  
 Ayvonida tikilmagan kashta qoldi...

Undan ayro tutolmasman hech o'zimni,  
 To'lmas usiz yuragimning kamu ko'sti.  
 Ko'kragimni yerga berib yotgan edim,  
 Mana, bugun ko'kragimda Vatan o'sdi.



## AHD

Endi "Vatan" so'zini aytsam,  
Anjirdayin erib aytaman.  
Shaftolilar pishgan bog'iga  
Har bandimni berib aytaman.

Maysasiday muloyim, sokin,  
Kiprigimda bir yosh, aytaman.  
Cho'pon ota quchog'idagi  
Qo'zisiday yovvosh aytaman.

Qizg'aldoqqa to'lgan qirlarin,  
Poylariga cho'kib aytaman.  
Anhorlarning bo'yida tongda  
Tutday jonim to'kib aytaman.

Sholizorda qolgan bobomning  
Kovushiday ivib aytaman.  
Endi "Vatan" so'zini aytsam,  
Yuragimdan sevib aytaman.





## YOMG'IR

Yomg'ir bo'lib yog'ib tushdim ko'k sahnidan,  
Derazangiz yopib qo'ymang, o'kinaman.  
Qo'lingizni uzatsangiz, boshim qo'yay,  
Qo'lingizni tortib olmang, o'tinaman.

Yog'ayotgan – yuragimning zardoblari,  
Shunday qismat taqdirimda bordir, netay.  
Soyabonsiz tashqarida aylansangiz,  
Sochlaringiz orasiga singib ketay.

Yomg'ir bo'lib...

## CHORRAHA

Buyon bozor tomon yo'l,  
Buyon mozor tomon yo'l.  
Birda aldoqchi ko'zlar,  
Birda ochiq ketgan qo'l.

Birda shovqinli dunyo,  
Birda sokin tinishi.  
Menga yoqdi qirsillab  
Chap ko'kragim sinishi...

## TAVOF

*Bu dunyoda men bir yo'lovchi...*

*Sergey Yesenin*

Yorug' daricha

Ey mo'min daraxtlar, muslim daraxtlar,  
Sanobar daraxtlar, salim daraxtlar.  
Har bitta yaprog'i Haqni eslatgan  
Halima daraxtlar, halim daraxtlar.

Men daydi yo'lovchi, men bir musofir,  
Bu qaro umringa bir oqlik kerak.  
Odamlar poyini o'pmoqlik – kufr,  
Daraxtlar poyiga cho'kmoqlik kerak...





## DARAXTLAR

IOVAT

Daraxtlarga havasim kelar,  
Daraxtlarning nafrati yo'qdir.  
Odamlarday mudramog'i-yu,  
Odamlarday g'aflati yo'qdir.

Novdalari go'yoki xanjar,  
Hech hadikka berilmaydilar.  
Jindek qilgan ibodat uchun  
Bosh silkitib kerilmaydilar.

Daraxtlarga havasim kelar,  
Zulmga esh zaboni yo'qdir.  
Ular bari birdek muloyim,  
Daraxtlarning yomoni yo'qdir...



## TAQDIR


Goh sha'mali, goho sha'masiz,  
Goh qurumli kunlarim kechgan.  
Hayot degan shu piyolada,  
Dunyo bizning qonimiz ichgan.

Sen bilmaysan, men ham bilmayman,  
G'amlarni ham g'amlab qo'yishgan.  
Ming yil avval taqdirimizni  
Shu choynakka damlab qo'yishgan...

## FIROQ

Bugun to'yib yig'lagansan, rost,  
Yomg'ir yog'di ko'klam faslida.  
Ovutishni bilmadim, ammo,  
Baxtsizlik ham baxt-ku, aslida.

Inkor etib ketishing mumkin,  
Yuragingni sitamlar siqdi.  
Tong otguncha kitob ichida,  
Suratimiz sirlashib chiqdi...





## SURAT

“Endi ishlash kerak bu kengliklarda...”<sup>1</sup>  
Peshonangdan terlaring sizib.  
Yuz yil o'tsa, shunday holingda,  
Suratingni qo'ysalar chizib.

Erkak bo'lib tushgin suratga,  
Sun'iylikdan dil qonga to'ldi:  
Ketmon tutib tursang – mayliga,  
Qalam tutib turmasang bo'ldi...

## DUNYO

Tun. Restoran. Odamlar gavjum,  
Qadahlarda chayqalar ko'zlar.  
Yuragimga qilarlar hujum  
Eng dahshatli, eng og'ir so'zlar.

Tashqarida o'ksinadi kuz,  
Nigohlardan to'kilar riyo.  
Restoranda o'ltirar ma'yus  
Odamlardan charchagan dunyo...

---

<sup>1</sup> Shavkat Rahmon satri.

## VIDO

Atirgullar ko'rib sarin tush,  
Qolib ketdi ishq sohilida.  
Ko'ksimdagi pati to'zg'in qush,  
Uchib ketding kuz yomg'irida.

Qolaverdim isming shivirlab,  
Buncha ishqning g'amlari uzun?  
Ketmoqdaman bog'lar oralab,  
Soyabonning ostida mahzun.

Tashlab qo'ymas shu holda meni,  
Kuygan bo'g'zim tirnab yotgan dod.  
Olamdagi bor maysalarning  
Boshlarini silab turgan zot.

Sen qayg'urma sira, chekma oh,  
Ayriliq bor ishq oxirida.  
Faqat o'zga yurakka nogoh,  
Kirib borma kuz yomg'irida...

## BANDI

Shuncha tortding oyoq-qo'limdan,  
Madorim ham qolmadi, attang.  
Yuray desam, yurar yo'limdan,  
Tikon bo'lib o'sdi safsatang.

Yolg'onlaring yolg'onni boshlar,  
Hech ketmadi g'amlaring nari.  
Kaftlarimga sachragan yoshlar –  
Ko'zlarimning mahbubalari.

Yuragimda ming alam faryod,  
Sen qalblarga cho'kkan g'uborsan.  
Balki yaxshi bo'lardi, hayot,  
Qo'llarimdan qo'yib yuborsang...



## TABIAT

Tabiat qo'llari xinoli,  
Qizg'aldoq ochilgan ko'hna qir.  
Tabiat onamday chiroyli,  
Labidan tushmaydi "Val-fajr".

Tabiat qulog'in chetiga  
Ammamday rayhonlar iladi.  
Yarador necha ming qalblarga,  
O'ksinib, chilyosin qiladi.

Tabiat singlimday ma'suma,  
Orolni qaytar deb oh qilar.  
Yarim tun uyg'onib, anhorga  
Chelakni ko'tarib chopqillar.

Tabiat buvimday xo'rsinib,  
Ovulda sibizg'a puflaydi.  
Tabiat qo'llarin musht qilib,  
Beshikda bolamday uxlaydi...





## SO'Z

Tun. Oshiqlar chekadi faryod  
Va keladi tongning nafasi.  
Oyga qarab yig'laydi uzoq,  
Qushchalarning ma'sum qafasi.

Kitoblari alg'ov-dalg'ov uy  
Derazasin ohista yopdim.  
Men shu kecha ozodlik so'zin  
Qushchalarning qalbidan topdim...

## TAZARRU

Yaraladim qalbing bilmayin,  
Faqat o'zim g'amimni yebman.  
Ona, seni rozi qilmayin,  
Mirtemirday bo'laman, debman.

Pechlaringga o'tin yoqmasdan,  
Tomga yoymay olma qoqini,  
Yuzlaringga bir bor boqmasdan,  
Ko'paytirdim soching oqini.

Tiriklikning tashvishi og'ir,  
Polaponlar rizqin kutganda.

Nahot, menday noshud bir o'g'il  
So'rovmiding to'lg'oq tutganda?

Panalarda saqlab yotdim jon,  
Ich-etimdan shilinmadim-ku.  
Tongda senga to'rtta issiq non  
Va mehrimni ilinmadim-ku.

Qandoq qilib Mirtemir bo'lay,  
Qandoq qilib Oybek bo'lay, ayt?  
O'zgalarga mehrimni sochdim –  
Sen mehrimga intiq turgan payt.

Yurak yig'lab, dil to'ldi dodga,  
Bu she'rlarim bir chetda tursin.  
Ona, rosti, adabiyotga  
Onam degan o'g'lonlar kirsin!





## ISHQ SHAMI

Derazangda yana o'chdi sham,  
Daydi itlar ingragan sahar.  
Oynalarga yuzini bosdi,  
Oppoq qorni sog'ingan shahar.

Derazangda yana o'chdi sham,  
Daraxtlarga qarading xomush.  
Olamdagi jami maysalar,  
Yaratganni ko'rar edi tush.

Derazangda yana o'chdi sham,  
Yuragingga g'amlar cho'kdi tiz.  
Hech kim seni anglay olmadi  
Shamday erib borayotgan qiz...

## ORZU

Fuzuliyning davriga qaytsang,  
Ko'rkam bo'lsang, abjir, yosh bo'lsang.  
Hafta o'tmay chaqirsa seni –  
Fuzuliyga sartaresh bo'lsang.

Duo qilsa sening haqqingga,  
G'azal aytsa xayolga tolib.  
So'ngra qaytsang bugungi kunga  
Fuzuliyga aylanib qolib...

## MOHIYAT

Hayotimga chizdim chizgilar,  
O'rtasiga tashlab qo'ydim oq.  
Mening yo'lim – tumonat gullar,  
Mening umrim – omonat yaproq.

Maysalarda Xudoni ko'rdim,  
Bir qalqdi-yu, titradi archa.  
Mening yozgan har bitta she'rim –  
Dilga ochiq yorug' daricha...





## HOLAT

Bahorning muzdayin hovurin totib,  
Yozning ko'rpasida xandalar otib.  
Tangridan shafolat tilanib-yotib,  
Mayning yomg'irlari iliq quyildi,  
Sening nigohlaring siniq tuyildi.

Aytmoqchi bo'lgandim, aytmayin qaytdim,  
G'ururim yo'l qo'ymas, qaytmayin qaytdim.  
Ko'zingdan tomchi yosh qulatgan paytim,  
Mayning yomg'irlari iliq quyildi,  
Sening nigohlaring siniq tuyildi.

Sen mendan olissan, men o'zim qayon,  
To'g'rimi, ishq sirin aylasam bayon?  
Kaftingga to'kilgan yoshimday ayon,  
Mayning yomg'irlari iliq quyildi,  
Sening nigohlaring siniq tuyildi.

Xayr deb yig'lading nastarin gulday,  
Men aytdim, ishq ahli bo'lmagay bunday.  
Sen bilan ayrilgan huv o'sha kunday,  
Mayning yomg'irlari iliq quyildi,  
Sening nigohlaring siniq tuyildi..

## SOG'INCH

*Muhammad Jo'raga*

Yorug' daricha

Shahar shovqinlarda horitmiş,  
Ayvonlari buncha zor etmiş.  
Bir uy manim ko'nglim yoritmiş,  
Chortoqqa in qurdi laylaklar.

Borolmadim bu bahor, ona,  
Muncha qalbim tosh ekan, ona.  
Manim fayzsiz kulbam aylona,  
Chortoqqa in qurdi laylaklar.

Tosh shaharda cho'kib qoldim tiz,  
Bolaligu bug'doyzor olis.  
Yurtga qilib duolar xolis,  
Chortoqqa in qurdi laylaklar.

Bir bor kelib holimni so'ra,  
O'tib ketgan bolalik zo'r-a.  
Bormisan, kel, Muhammad Jo'ra,  
Chortoqqa in qurdi laylaklar.

Maysasida o'mbaloq otsam,  
Qani, mehrin mag'zini totsam.  
Men Chortoqni sog'inib yotsam,  
Chortoqqa in qurdi laylaklar...



## FE'L

Ket, deding, tishimni tishimga bosdim,  
Paltoyim uzatding nafrat bilan so'ng.  
Shamol eshiklarni qarsillab yopdi,  
Bildim, taqdirimiz hech kelmadi o'ng.

Menga alam qildi, bu dunyo ichra  
Shuncha soddaligim, xor-u xasligim.  
Sen, axir, bilarding ikki dunyoda  
"Ket" degan jumlani yoqtirmasligim...

## SHOIR UMRI

Yolg'izlikda yig'ladim yuz yil,  
Chinorlarning ko'ksini silab.  
Do'rmon, sendan ketayotirman,  
Shavkat Rahmon umrini tilab.

Ko'ksimdagi og'riqlarimni,  
Bir bor eshit, bir bora his qil.  
Ayo, Tangrim, manim qalbimni  
Millat degan so'zga egiz qil.

Bisotingda milyon xil rang bor,  
Menga bergin yashildan, oqdan.  
O'zing asra, ey, Parvardigor,  
Shunchaki she'r aytib ketmoqdan...

## SUNBULA

Suv quyarkan pushti gullarga,  
Ildiziga keltiray deb naf –  
Kitoblarni ko'tara olmay,  
Ko'ngli bilan to'kilar shkaf.

Qaldirg'ochlar uchar qaygadir,  
Hayotiga solmay nafis tus,  
Sentyabr kirar xonaga,  
Kreslodan turmaydi Avgust...





## QAYTISH

Ortda qoldi endi ko'hna Shosh,  
Tovoningdan chechak otibsana.  
Namangan, sen, dovondan o'tsam,  
Yuragimda gullab yotibsana.

Diydorimni tilading tonglar,  
Qoshingga men bormadim nechun?!  
Maysang o'pib yig'ladim olis,  
Sog'inch ezgan kunlarim uchun.

Sen onamning ko'ziday munis,  
Otam aytgan muloyim sassana.  
Ayvondagi qaldirg'ochlarning  
Tumshug'idan to'kilgan xassana.

Guzardagi ulkan chinorlar  
Mashrab ohin aytayotganday.  
Sevinyapsan shunchalar qattiq,  
Boburiylar qaytayotganday.

Behilarda osilgan suzma,  
Chelaklarda chayqalغان sutsana.  
Sog'inch bo'lib, ming sog'inch bo'lib,  
Bag'rim yorib ochilgan yurtsana...

## BITIM

Mana, hammasiga sen qo'yding nuqta,  
Mana, hammasiga men bo'ldim rozi.  
Bugun yetmayapti manim umrimga,  
Bir o'jar shoirning o'ktam ovozi.

Yorug' daricha

Molini boy bergan kimsaday mahzun,  
Vijdonim oldida turib qoldim tik.  
Dunyo, axir, sen-la pokiza dilni  
O'ldirib qo'ymoqqa kelishmagandik...

## TASHVISH

Tun qadahda suzilib turar,  
Ohu chopib to'ymaydi qirda.  
Xudo shundoq bergan ko'nglimni  
Boy bersam-a yigirma birda?

Poygaklarda ezildi ko'ngil,  
Erib bitdi ilohiy shamlar.  
Tirnog'imday o'sib bormoqda  
Tirnog'imday kichkina g'amlar...



## ANGLASH

Menda yashayapti bir parcha yurak,  
Bir parcha ko'ngil bor dunyoga boqqan.  
Ha, o'sha men edim tunda qon yutib,  
Tonggi nasim bo'lib darchangiz qoqqan.

O'shanda kuz edi nigohi sarg'ish,  
Qushlar ko'kda qo'shiq aytib yelmagan.  
Sizning ko'zingizga boqib angladim,  
Bu bog'larga hali bahor kelmagan...

## TASHRIF

Ko'zim yumdim, oppoq tumanlar,  
Atirgulga qirov ingan kun.  
O'rtamizda sharros yomg'irlar,  
Ukpar qorlar yog'ib tingan kun.

Siz keldingiz, birdan to'xtadim,  
Bu qanday hol, bu qandayin ish?  
Oh, dekabr ketmay, xonamga  
Boychechakni olib kirdi Qish...

## ICHIKISH

Derazalar ochildi qiya,  
Pardalarni ko'tarding g'amgin.  
Tashqarida asalarilar,  
Tashqarida tabiat rangin.

Qaylargadir termulding olis  
Va xo'rsinding tog'larday og'ir.  
Ichkarida har kungi hayot,  
Tashqarida shitirlar yomg'ir...

## O'SHA BIR KUN...

Siz qaytasiz bir kun yurakka,  
O'sha bir kun, o'sha bir lahza –  
Yetmish ikki tomirlarimda  
Unib chiqar yam-yashil maysa.

Siz qaytasiz bir kun yurakka,  
Derazamni ochib aftoda.  
His qilaman ming yil ilgari  
Yashaganim Odam Atoda.

Siz qaytasiz bir kun yurakka,  
Qarang, to'zib yotgan yeldayman.  
O'sha bir kun, o'sha bir lahza,  
Men dunyoga qayta kelgayman...





## YO'L

Ko'zim, sizni yig'latdim bekor,  
So'zim, sizni isrofga tutdim.  
Muhabbatdan, mehrdan ayro,  
Qancha ishqsiz tunlardan o'tdim.

Yetib keldim, nihoyat, mana,  
Ko'zimda yosh, sochlarimda qor.  
Ketib borar ufqqa g'amgin  
Kuzaklarda toptalgan Bahor...

## SAVOL

Umrim bo'yi sizni izladim,  
Daraxtlardan tilandim taskin.  
Minorlarga yelkamni qo'yib,  
Mashrabdayin yig'ladim miskin.

O, ortimda besamar yillar,  
Yo'qotgandi rangli tusini.  
Qish, Xudoyim qor qilib sochdi  
Yuragimning kuyindisini.

Horg'in tortdi ma'yus darchalar,  
Loychan tomlar bezandi oqqa.  
Nega sizning jur'atingiz yo'q  
Hayotimga kirib kelmoqqa?..

## TAFAKKUR

O'ylab ko'rish kerak, ehtimol,  
Gullar qachon gul bo'lganini.  
Sulaymonning tillo taxtlari  
Vaqt qa'rida kul bo'lganini.

O'ylab ko'rish kerak, ehtimol,  
Toshlar bejiz toshmasligini.  
Tuproq yorib yuksalgan tog'lar,  
Bevaqt haddan oshmasligini.

O'ylab ko'rish kerak, ehtimol,  
Yaproqlardan oqib yashil qon,  
Darchalarga urilib yomg'ir,  
Qaydan kelib, qayga ketdi jon.

O'ylab ko'rish kerak, ehtimol,  
Hayot og'ir bir yukligini.  
Ko'pni ko'rgan donishmand dunyo  
Siz-u bizdan buyukligini...





## MUTOLAA

*F. Dostoyevskiyning "Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar" romanini o'qib*

Peterburgda, balki, hozir qish,  
Oppoq qorlar yog'ar bo'ralab.  
Dostoyevskiy, yuzlari sarg'ish,  
Pardalardan qarar mo'ralab.

Simit yig'lar ro'parasida,  
Kim safsata, kim g'iybat sotar.  
Qahvaxona bir chekkasida,  
Azorkasi jon berib yotar.

Oh, Exmenov boshlaydi bahsni,  
Natasha jim xayolga tolar.  
Adib, shoir bo'lar barisi,  
Inobatsiz deb qo'ya qolar.

Ko'nglim og'rir, maysaday ko'nglim,  
Yig'lab yotar sokin shaharda.  
Yur, ketaylik, Natasha singlim,  
Bizga kun yo'q notinch shaharda.

Yirtgim kelar romanni birdan,  
Yomonlikni so'kib bo'ralab.  
Shu kitobning bir chekkasidan  
Dostoyevskiy turar mo'ralab...

## SHOIR QALBI

O'yga tolib qoldi Pasternak,  
Nimadandir ko'ngli bo'ldi g'ash.  
Rossiyada qor yog'di tinmay,  
Kunduzlari yomg'ir aralash.

Soyabonin ikki yonidan,  
Yomg'ir sizib tushdi mayinlab.  
Shoir qalbin tushundi bugun  
Bu yerdagi oppoq qayinlar.

Tushunmadi odamlar faqat,  
Og'rinardi tonglari yurak.  
Bu yerlardan bir qush misoli  
Uchib ketdi so'ngra Pasternak...






## 18 SHOIRA

*M.Svetayevaga*

Sizning ko'zingizda qontalash kunlar,  
Xayollari sarg'ish, uylari sarg'ish.  
Sizdayin yurakni asrab qolmagan  
Dunyoga har kuni o'qiyman qarg'ish.  
Har kuni shoshaman qaygadir yig'lab,  
Bir yurak izlayman yer yuzasidan.  
Nogoh nigohingiz ko'rib qolaman  
Notanish avtobus derazasidan.  
Demak, siz tiriksiz, demak, siz borsiz,  
Qayg'ular g'aminda, o'ylar g'aminda.  
Marina, o, mening sho'rlik shoiram,  
Demak, So'z yashaydi ro'yi zaminda...



## FO'RUG' FARRUXZODGA

Bir oy bo'ldi uchrashdim siz-la,  
Ko'zingizga nogoh tushdi ko'z.  
Yetmas edi manim umringa  
Siz dunyoga tashlab ketgan So'z.

Kuz ketardi bog'larda yig'lab,  
Turnalardan ayrilgan onda.  
Mayingina sochingiz silab,  
Yomg'ir yog'ib chiqdi Tehronda.

Og'irlashdi yurak degan yuk,  
Tuproq o'pib yotar boshingiz.  
Bu yog'ayotgan yomg'irlar, Fo'rug',  
Ko'zingizda qolgan yoshingiz...



## MA'SUMA

Bekatlarda qolgan cha yolg'iz,  
Unutaman barcha-barchasin.  
Axmatova ochadi mahzun  
Yuragimning eski darchasin.  
Hayotiga ming tashvish solgan,  
G'amlarini sochib tashlaydi.  
Yuragimning dimiqib qolgan,  
Xonalarin ochib tashlaydi.  
Va men bilan yig'laydi biroz,  
Yuzlariga urilib epkin.  
Sharqning ma'sum ayoliga xos,  
Darchalarni yopadi sekin.  
So'ng yomg'irlar yog'adi birdan,  
Musichalar mudraydi picha.  
Qobirg'amni bir bandi sindi,  
Axmatova yig'lagan kecha...

## NAJOT

Qachon qaytding? Qaytganing haqmi?  
Yolg'onmasmi? Ishontir bunga.  
Endi meni qo'yma topshirib  
Hijron degan qonli hukmga...

## ZIDDIYAT

Yarim tunda kitobingni ochib qo'yib,  
Derazangning pardalarin tuzatyapsan.  
Men yomg'irda yig'layapman to'yib-to'yib,  
Sen yomg'irni mazza qilib kuzatyapsan...

Yorug' daricha

## MEROS

Har lahzamga bitta she'r yubor,  
Har lahzamda bo'lsin alanga.  
Toki yorug' umrimni berib,  
Ketish nasib qilsin bolamga...

## ZULMAT

Tun cho'kadi. Dunyo holi tang,  
Ko'rinmaydi gullarning nozi.  
Kimgadir bir she'r o'qiy desang,  
Eshitilar itlar ovozi...

## KUZ

Kuz buncha chiroyli, kuz buncha dilbar,  
Sarg'ish sochlariga qo'nibdi shabnam.  
Daraxtga suyanib bir shoir kabi,  
Unutib qo'yibdi kuzligini ham...



## ORALIQ

Dalalarga tushdi oq tuman,  
Sovuq kundan berib daraklar.  
Go'yo bugun so'nggi yaprog'in  
Yerga berib qo'ydi daraxtlar.

Sekingina eshikni yopdim,  
Qarog'larim horg'in tortdi-da,  
Ketayotgan kuzga achinib,  
Yig'layverdim eshik ortida.

So'ng ko'chaga chiqdim otilib,  
To'yib ketdim, oyoq ostim muz.  
Boray desam, bahor ko'p olis,  
Qaytay desam, ketib bo'lgan kuz...



## TUSHUNTIRISH

Tushunsang-chi, hozir qahraton,  
Qara, yo'llar oyna – yaxlagan.  
Uyg'onmadi uyqudan dunyo,  
Boychechaklar olis – uxlagan.

Tushunsang-chi, hozir qahraton,  
She'r yozolmay to'ladi bag'ir.  
Sog'intirib yubordi quyosh,  
Sog'intirib yubordi yomg'ir,

Tushunsang-chi, hozir qahraton,  
Yulduzlarni ezar og'ir g'am.  
Osmoniga qaytmagan oyday,  
Qaytolmayman qoshingga men ham.

Tushunsang-chi, hozir qahraton...





## MASLAK

Men izlagan ranglarni topdim,  
Men izlagan so'zlar o'lmadi.  
Bor dardingni borliqqa sochib,  
Daraxtlarday yig'lab bo'lmadi.

Men tushundim, shoirlik qismat,  
Nuri ko'chmish sochim oqiga.  
Goho chaqin urdi umrimning  
Gullayotgan hamma yog'iga.

Sizib, sizib, ichimga oqdim,  
Yaratgandan tilab to'zimni.  
Bu qorong'u dunyo bag'riga  
Qoldiraman yorug' so'zimni...



## MUNDARIJA

Parvoz .....	3
Vatan .....	4
Ahd .....	5
Yomg'ir .....	6
Chorraha .....	6
Tavof .....	7
Daraxtlar .....	8
Taqdir .....	9
Firoq .....	9
Surat .....	10
Dunyo .....	10
Vido.....	11
Bandi.....	12
Tabiat .....	13
So'z.....	14
Tazarru .....	14
Ishq shami .....	16
Orzu .....	16
Mohiyat .....	17
Holat .....	18
Sog'inch.....	19
Fe'l .....	20
Shoir umri .....	20
Sunbula.....	21
Qaytish .....	22
Bitim .....	23

Tashvish .....	23
Anglash .....	24
Tashrif .....	24
Ichikish .....	25
O'sha bir kun... ..	25
Yo'l .....	26
Savol .....	26
Tafakkur .....	27
Mutolaa .....	28
Shoir qalbi .....	29
Shoira.....	30
Fo'rug' Farruxzodga.....	31
Ma'suma .....	32
Najot .....	32
Ziddiyat .....	33
Meros.....	33
Zulmat.....	33
Kuz .....	33
Oraliq.....	34
Tushuntirish .....	35
Maslak .....	36



## MUSLIM MUSALLAM

*1986 yili Namangan shahrida  
tugʻilgan. Shahardagi 30-umumtaʼlim  
maktabida tahsil olgan. Sheʼrlari va  
tarjimalari markaziy nashrlarda chop  
etilgan. Respublika yosh ijodkorlarining  
Zomin seminari ishtirokchisi (2008).*

ISBN 978-9943-566-73-6



9 789943 566736